МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илимий-методикалық журнал

№ 3/1 2025

гуманитарные науки
естественные науки
технические науки

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MUSIQIY ONGINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI METODLARI.

Jabborova O.M.
CHDPU, pedagogika fanlari bo‘yichafalsafa doktori (PhD)
Usmonova Q.S.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchsi

Tayanch so’zlar: metod, layoqat, musiqa,savolnoma, suhbat, odob, tarbiya, ta`lim, jarayon, ong, manbalar, qoidalar, tinglash, natija, shakllanish.
Ключевые слова: метод, способности, музыка, анкета, беседа, этикет, воспитание, образование, процесс, сознание, источники, правила, слушание, результат, формирование.
Key words: method, ability, music, survey, conversation, etiquette, upbringing, education, process, consciousness, sources, rules, listening, result, formation.

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada o‘quv jarayonida o‘quvchilarning musiqiy layoqatini aniqlash metodi va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqiy layoqatini aniqlashda turli metodikalar, vositalar va texnologiyalarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda asosiy e’tibor boshlang‘ich sinf o‘quvchilari musiqiy layoqatini aniqlab olishga hamda musiqiy ongini shakllantirishda tarbiyaviy ahamiyati va musiqa tanlashda o‘zining yosh xususiyatlarini hisobga olishi, va musiqani tanlashi va ayniqsa, xatti-harakatlarga chorlovchi musiqani tanlashga e’tibor berish ahamiyati ilmiy tadbiq etiladi. Ilmiy fikrlar faktlarga asoslanib xulosalandi.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье рассматривается метод определения музыкальных способностей учащихся в учебном процессе, а также целесообразность использования различных методик, средств и технологий для определения музыкальных способностей учеников начальных классов. Основное внимание уделяется выявлению музыкальных способностей учащихся начальных классов, а также воспитательному значению в формировании музыкального сознания, учету возрастных особенностей при выборе музыки, а также важности выбора музыки, которая способствует действиям, и ее воздействия на поведение учеников. Научные выводы основаны на фактах.
SUMMARY:
This article discusses the method of identifying students' musical abilities in the learning process and the appropriateness of using various methodologies, tools, and technologies for determining the musical abilities of primary school students. The main focus is on identifying the musical abilities of primary school students and the educational significance of shaping their musical consciousness, considering their age characteristics when choosing music, and the importance of

selecting music that encourages actions, especially in terms of influencing behavior. The scientific conclusions are based on facts.

Mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim jarayoni umumiy o‘rta ta’limning asosiy bosqichlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli ta’limning mazkur bosqichida o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini hozirgi zamon talablari aossida tarkib toptirish muhim pedagogik vazifalardandir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida musiqiy ongni shakllantirish ham ana shu jarayonning zaruriy va tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilari musiqiy ongini shakllantirishning metodlarini takomillashtirish masalasi nazariy-metoditk jihatdan hal qilib olinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu o‘rinda e’tiboringizni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari musiqiy layoqatini aniqlash metodi taxliliga tortamiz.

Musiqiy layoqat mazmuni. “Layoqat – bu qobiliyat taraqqiyotining dastlabki sharti sifatida namoyon bo‘ladigan miya tuzilishining sezgi organlari va xarakatlarining morfologik (bilish) hamda funksional (vazifaviy) xususiyatlaridir... layoqat shaxsda muhit va ta’lim-tarbiyaga bog‘liq holda o‘sib boradi. Har bir kishi “mudrab yotgan” layoqat (tug‘ma imkoniyat) bilan dunyoga keladi”. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining layoqati deganda ularda musiqiy bilim, musiqiy ko‘nikma va musiqiy ijodkorlik bo‘yicha o‘ziga xos jismoniy va ijtimoiy imkoniyatlarning mavjudligini nazarda tutamiz. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida musiqiy layoqat ham tug‘ma bo‘lgani holda, u ta’lim-tarbiya va muhit asosida rivojlantirib boriladi. Layoqatning tug‘ma ekanligini pedagogik manbalari va tadqiqotlar ham yakdillik bilan ta’kidlashini eslatib o‘tish joiz. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mavjud musiqiy layoqatni aniqlash metodini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bizningcha, bu metodda quyidagilarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

1) suhbat vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridagi musiqaga bo‘lgan qizqishni aniqlash;

2) maxsus test vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqiy layoqat darajasini aniqlash;

3) mutaxassislar ishtirokida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqiy layoqat yo‘nalishlarini belgilash.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqiy layoqati ularning musiqaga bo‘lgan qiziqishi vositasida namoyon bo‘ladi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqiy layoqatini aniqlash va bunda o‘ziga xos metodikaga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur masalada bizning yondashuvimizga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqiga bo‘lgan qiziqishini aniqlashda Suhbat vositasi imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga

muvofiq bo‘ladi. Chunki mamlakatimizning ko‘pchilik 5-6 yoshli bolalari maktabgacha musiqa tashkilotlari bilan qamrab olingan, bu qamrov darajasi 2024 yil yakunlariga ko‘ra 75 foizni tashkil qildi. Mazkur maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalashuvchilari dastlabki bosqichda musiqa olamiga olib kirilgan hisoblanadi. Bundan tashqari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan qamrab olinmagan 5-6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash kurslari vositasida tarbiyalash ishlari amalga oshirilmoqda. Maktabga tayyorlash kurslarining ham asosiy mashg‘ulotlari qismlaridan birini bolalarni musiqa ta’limiga yo‘naltirish tashkil qiladi. Shu jihatdan bu o‘rinda ana shunday suhbatning biz tomonimizdan shakllantirilgan namunaviy savollariga diqqatingizni tortamiz:

1. Siz musiqa tinglashni kimdan o‘rgangansiz?
2. Sizga musiqa tinglashda kim yordam beradi?
3. Musiqa tinglash uchun nimalardan foydalanasiz?
4. Televizorda berilayotgan bolalar konsertlarini ko‘rib borasizmi?
5. Oilangizda kimlar musiqaga ko‘p qiziqadi?
6. Sizning oilangizdagi kompyuterda musiqa tinglash imkoniyatlari bormi?
7. Mobil aloqa vositangiz bormi?
8. Kompyuter yoki mobil aloqa vositasidan nimalarni ko‘p ko‘rasiz?
9. Qanday multfilmlarni yoqtirasiz? (bunda bola aytgan multfilmlardagi musiqalardan kelib chiqib bolaning musiqaga qiziqishi aniqlanishini eslatib o‘tish joiz.)
10. Siz bog‘chaga borganmisiz?
11. Sizga qanday musiqalar yoqadi?
12. Siz musiqa chalishga qiziqasizmi?
13. Siz qanday qo‘shiqlarni bilasiz? Kuylab beringchi
14. Raqsga tushishiga qiziqasizmi?
15. Sizga kim o‘yin o‘rgatgan?
16. Musiqa cholg‘ularidan qaysi birlarini bilasiz?
17. Uyingizda musiqa cholg‘usi bormi?
18. Siz katta yoshlilar bilan konsertlarga borganmisiz?
19. Oilangizda konsertlar to‘g‘risida katta yoshlilar gapirishadimi?
20. Sizga musiqaga qiziqishingizni amalga oshirish uchun qanday yordam kerak?

Mazkur namunaviy Savolnoma asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqaga bo‘lgan qiziqishlari aniqlanadi. Bunda asosiy e’tibor savollarni 1-sinf o‘quvchisi tushunadigan darajada ifodalashga qaratilishi kerak va har bir o‘quvchining javobi diqqat bilan tinglab borilishi lozim. Suhbat jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, maktab psixologi va imkonqadar umumiy o‘rta

ta’lim maktablari biriktirilgan hududlardagi oliy pedagogik ta’lim muassasalari musiqa ta’limi yo‘nalishi professor-o‘qituvchilarining ishtirok etishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, mazkur suhbat vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqaga bo‘lgan qiziqishlarini aniqlashda hududlarda faoliyat yuritayotgan Bolalar musiqa va san’at maktablarining mutaxasisslari ekspert sifatida ishtirok etishi metodik jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi. Chunki bunday toifa mutaxasisslar mutaxasisslar boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridagi musiqiy eshituv ko‘nikmasining mavjudligini tez anglashadi. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqaga bo‘lgan qiziqishini aniqlash ularning ta’lim va tarbiyasini tashkidl qilishning uzviy qismi hisobshlanishini eslatib o‘tish joiz. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqaga bo‘lgan qiziqishini aniqlash jarayonida Suhbat oddiy, qulay va o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos sharoitda tashkil qilinishi lozim. Bunday suhbat jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlari faol ishtirok etishi kerak. Bundan tashqari, suhbat vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqiy eshituv ko‘nikmasini aniqlashga e’tibor berish ham maqsadga muvofiq bo‘ladi. Unga ko‘ra, suhbat o‘tkazilayotgan kabinetning biror joyida nihoyatda past ovozda musiqa qo‘yiladi, agar suhbat jarayonidagi o‘quvchi darhol musiqani eshitsa, unda musiqiy eshituv layoqati mavjud bo‘ladi. Bordi-yu o‘quvchi kabinet burchagi taralayotgan musiqa ovoziga befarq munosaabtda bo‘lsa unda musiqiy eshituv ko‘nikmasi tartibga solinmagan hisoblanadi. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqaga bo‘lgan qiziqishini Suhbat vositasida aniqlashda ularning qiziqish jarayoni va musiqiy eshituv darajasi o‘rganiladi. Buning natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqiy layoqatini aniqlashning dastlabki bosqichi amalga oshiriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqiy layoqatini aniqlashda asosan ularning bolalar musiqa san’ati asarlarini tinglashiga e’tibor berishg kerak. Bunday yondashuv ularni bolalar musiqa asarlarini tinglashga yo‘naltiradi. Musiqiy layoqatni aniqlashda 1-sinflarda Suhbat metodidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. 2-sinfdan boshlab boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqiy ongida layoqat rivojlana boshlaydi va bu jarayonda Musiqa o‘quv fanining o‘rni muhimdir. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilarning musiqiy layoqatini suhbat vositasida aniqlash metodikasi bilan qurollantirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuni eslatib o‘tish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 23 maydagi “madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘riisida”gi Qarorida umumiy o‘rta ta’lim maktablari 10dan ortiq xalq cholg‘ulari, ya’ni milliy cholg‘ular bilan davlat tomonidan ta’minlanmoqda. Mazkur Qaror asosida

umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari bitiruv yakunida kamida ikkita cholg‘udan kuy ijro eta olishi va umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilari kamida uchta cholg‘uda ijrochilik mahoratiga ega bo‘lishi belgilangan. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘zlari qiziqqan va layoqatga ega cholg‘ular bo‘yicha kuy ijrosiga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu ma’noda ularning musiqiy laqatini aniqlash jarayonida muayyan cholg‘uga bo‘lgan qiziqishini ham aniqlash ishi amalga oshiriladi. Suhbat ishtirokchilari muayyan cholg‘ularda ijrochilik malakasiga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu ma’noda oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish masalasi ham muhim ahamiyatga egadir. Umuman boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi boshlang‘ich ta’limda o‘qitiladigan o‘quv fanlari bo‘yicha kasbiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi taqozo etiladi. Shu ma’noda Musiqa o‘quv fani bo‘yicha ham bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining chuqurlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirilishi muhim amaliy ahamiyatga ega.

Musiqiy layoqatga oid yondjashuvlar turlicha ekanligi bilan diqqatni tortadi. Jumladan, Abu Nasr Farobiy (X asr) “Katta musiqa kitobi” asarida insonda musiqiy layoqat tabiiy bo‘lishini va har bir insonda bunday layoqatning mavjud ekanligini e’tirof etish lozimligini aolohida ta’kidlaydi . Unga ko‘ra, tabiiy musiqiy layoqat quyidagicha namoyon bo‘ladi:

1) tabiatdagi tovushlar shovqin surondan iborat bo‘ladi va bu tovushlarni hamma eshitadji;

2) muayyan ohangli tovushldar mavjud bo‘ladi va bunday musiqiy tovushlarni musiqiy layoqatga ega shaxslar tez eshitadi.

Misol uchun, daraxtlarning shovillashi oddiy tovushlar turiga kiradi; muayyan ritm asosida taqillagan tovush musiqiy tovushga kiradi va mana shunday tovushni eshituvchi shaxslar musiqiy layoqatga ega bo‘ladi. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sezgi va eshituv organlari rivojlanish jarayonida bo‘lganligi uchun ular ohangli tovushlarni tez ilg‘ashadi. Masalan, qushlarning sayrashi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida zavq uyg‘otadi va bu hol ularda musiqiy layoqatning tabiiy-tug‘ma ekanligini namoyon qiladi. Shu sbaabli Farobiy insonda musiqiy layoqatni yoshlikdan boshlab aniqlash va rivojlantirishni tavsiya qilgan.

Mashhur tarixiy san’atkorlarimizdan yana biri Darvish Ali Changiy (XVII asr) “Risoldai musiqiy” asarida musiqiy layoqatni aniqlashning o‘zgacha metodini takldif qilgan. Unga ko‘ra, muayyan musiqa cholg‘usi past oxangda ijro etiladi va ana shu past oxangni darhol fahmlagan kishida musiqiy layoqat

mavjudligi namoyon bo‘ladi. Shu tariqa Darvish Ali Changiy shaxsning musiqiy layoqatini aniqlashda Doira, Tanbur, Dutor, Chang, Qonun kabi xalq cholg‘ularini past registrda ijro etish va ana shu tovushlarni eshitish vositasida yoshlarning musiqiy layoqatini aniqlash metodini taklif qilgan. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqiy layoqatini aniqlashda mazkur metoddan ham foydalanish mumkin. Unda muayyan xalq cholg‘ularini mayin va past tovushlarda ijro etish hamda uni eshitish vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini musiqiy layoqat ko‘lamini aniq aniqlab olish mumkin. Masalan, Tanbur cholg‘usining eng quyi tovushini faqat eshituv malakasiga ega odamlar eshitadi va musiqiy pedagogika tajribasidan ma’lumki, ana shu ohanglarni 7-11 yoshli bolalar to‘liq eshitadi. Shu sababli bu metodika asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 1-sinfda musiqiy layoqatini aniq aniqlab olish imkoniyati mavjud.

Yana bir mashhur musiqa san’atkorlarimizdan biri jadid pedagogi G‘ulom Zafariy (X asr) musiqiy layoqatni aniqlashda suhbat metodidan foydalanishni tavsiya qiladi. Unga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqiy layoqatini aniqlashda ular bilan suhbat o‘tkaziladi va bu suhbat jarayonida musiqiy layoqatni aniqlovchi shaxs muayyan kuylarni yoki qo‘shiqlar parchalarini hirgoyi qiladi. Agar ana shu hirgoyini shaxs eshitsa, unda musiqiy layoqat mavjudligi namoyon bo‘ladi. G‘ulom Zafariy mazkur metodikasida xalq musiqa san’ati tajribasidan kedlib chiqgan. Chunki ichki xirgoyi uni ijro etuvchining eshituv ko‘nikmasini rivojlantiradi va bunday xirgoyini eshitgan o‘zga kishilarda ham eshituv layoqati mavjudligi ma’lum bo‘ladi. Shu sababli keyinchalik umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitilib kelayotgan Musiqa o‘quv fanida musiqiy eshituv musiqiy layoqatning asosiy omillaridan biri sifatida qabul qilingan.

Mashhur olmon musiqa pedagogi Karl Orfning (XX asr) musiqiy layoqatni aniqlash metodi ham keng ommalashgan . Unga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari 1-4 sinflarda xor qo‘shiqlarini kuylashi jarayonida o‘zlarining musiqiy layoqatini namoyon qiladi. Agar o‘quvchi xor qo‘shiqlarini ohangli va avj pardalarini o‘rinli ijro etsa, unda musiqiy layoqat mavjud ekanligi e’tirof etiladi. Shuni ta’kidlash lozimki, xor bo‘lib kuylash jarayonida o‘quvchilar jamoaviy ijro etadi va aynan jamoaviy ijrochilik jarayonida musiqiy layoqatga ega o‘quvchilarning ovozi yangroq eshitilib turadi. Ana shu eshituv asosida muayyan o‘quvchilarda musiqiy layoqatning tabiiy mapvjud ekanligi aniqlanib, uni rivojlantirish ishlari amalga oshiriladi. Karl Orfning mazkur metodi bugungi kunda G‘arbiy Yevropa mamlakatlari ta’lim muassasalarida amalda ekanligini eslatib o‘tish joiz.

Milliy va xorijiy musiqa pedagoglarining musiqiy layoqatni aniqlash bo‘yicha yondashuvlariga doir mazkur misollardan ma’lum bo‘ladiki, har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisida musiqiy layoqat tug‘ma va tabiiy mavjud bo‘ladi. Lekin musiqiy layoqat har bir o‘quvchilarda turli darajalarda ekanligi hisobga olinadi. Bunda eng asosiy masala boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida musiqiy layoqatning mavjudligidir. Shu sababli ularda musiqiy ongni shakllantirish pedagogik jihatdan ahamiyatga ega bo‘ladi. Musiqiy layoqatni aniqlab olish nafaqfat boshlang‘ich sinf o‘quvchilarininshg musiqiy onshgini shakllantirishga, balki musiqa bo‘yicha mashg‘ulotlarning mazmuni va shakllarini tanlab olishga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi. // www.ziyonet.uz

2. Dimitreyeva L., Chernoivanenko N. Metodika muzыkalnoga vospitaniya v shkole. – M.: «Prosveщyeniye». 1989. –S. 7

3. Yunus Rajabiy. O‘zbek xalq musiqasi. 1-tom. – Toshkent, 1963., Dadajonova G. Maktabda musiqiy tarbiya. – Toshkent, 2017 va h.k.

4. G‘ulom Zafariy. Asarlar. – T.: “Infokapitalgurup”. 2018. 202-245 betlar. // www.ziyonet.uz

5. Usmonova Q.S . Boshlangich sinf o`quvchilarida tankidiy fikrlashni shakllantirishda pedagogic-psixologik integratsiya va uzluksizlik. Муаллим хем узликсиз билимлендириў. 2023/3 .370-375-b ttps://lib.cspi.uz/index.php?newsid=7951

6. Usmonova Q.S. Boshlangish ta`limda Filandiya ta`lim tizimini imkonoyatlari . Международный научный журнал № 4 (100), часть 2 «Научный импульс» Ноябрь, 2022./4. 899-903-b

7. Usmonova Q.S Development of Steam International Assessment Program in Primary Education. Central asian journal of literature, philosophy and culture. 30th Apr 2023. 242-244

8. Usmonova Qumrinsa Saidaliyevna. Use of Foreign Experiences and World Pedagogy in Elementary Education Teaching. // “Diversity Research: Journal of Analysis and Trends. 2023/8/.s 27-29

9. Usmonova Qumrinsa Saidaliyevna. Fundamentals And System Of Preparing Primary Class Students For Next Types Of Education |. Web of Teachers: Inderscience Research, 2023/12/8. 71-73